

FANSURULLOBEK XUDOYORXONOV – TOSHKENT JADIDLARI VAKILI

Muxlisa Saidmurodova

*Qarshi shahridagi Xalqaro innovatsion universitet
talabasi*

Jadidlar harakati o'zbek xalqining ma'naviy uyg'onish davrini boshlab bergan buyuk tarixiy jarayondir. Bu harakat millatni jaholatdan chiqarib, ilm va ma'rifat sari yetaklashni maqsad qilgan. Jadidlar xalqni o'qishga, fikrlashga va zamon bilan hamnafas yashashga chorlaganlar. Ular millatning taraqqiyoti faqat bilim va tarbiya orqali amalga oshishini chuqur anglaganlar. Jadidlar merosi bugungi kunimizda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, chunki ularning g'oyalari hozirgi taraqqiyot yo'limiz bilan uyg'undir.

Jadidlarimizdan Mahmudxo'ja Behbudiy yosh avlodni ilmi qilishni millat kelajagi deb bilgan. U o'z asarlari orqali xalqni uyg'otgan. Shu o'rinda jadidlar og'ir sinovlarga duch kelsa-da, ular o'z g'oyalarni doimo qo'llab-quvvatlab kelishgan. Ko'plab jadidlar qatag'on qurboni bo'lishsa-da, ularning nomi biz yosh avlodlar qalbida o'chmas iz bo'lib, xalq qalbida yashaydi. Jadidlar millatning o'zligini saqlab qolgan fidoyi insonlardir. Jadidlar merosi bugungi taraqqiyotimizning mustahkam poydevoridir. Har bir yosh jadidlar merosidan saboq olishimiz lozim, chunki taraqqiyot — ma'rifat bilan, fidoyilik bilan barpo bo'ladi. Jadidlar boshlab bergan yo'lni davom ettirish esa bugungi avlodning eng muqaddas vazifasidir

Qo'qon xoni Xudoyorxon farzandlari ichidan ham qator jadidchilik namoyandalari yetib chiqqan. Xudoyorxonniig ijodkor farzandlaridan biri jadid Muhammad Aminbekdir. Shohrux Umarovga ko'ra, “Sayyid Muhammad Aminbek fors-tojik, arab, turk va rus tillarini yaxshi bilar, esdaliklarini fors tilida yozib borar edi. Bu esdaliklarda 1300 yildan to 1900 yilgacha bo'lgan Farg'ona tarixini yozish uchun rejalashtirilgan, keyinchalik bu esdaliklar “Anjum at-tavorix” (“Tarix yulduzlari”) asarining yozilishiga sabab bo'lgan”. Tarixchi Shodmon Vohidovning yozishicha, Qo'qon tarixiga bag'ishlangan “Anjum at-tavorix” (“Tarix yulduzlari”) asarining muallifi risolaning biror-bir joyida to'liq tilga olinmagan bo'lsa ham, ba'zi tadqiqotchilar asarlarida va qo'lyozmaning o'zida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, asar muallifi Xudoyorxonning o'g'illaridan Muhammad Amin yoki Ibn Yamin bo'lishi mumkin deb taxmin qilinadi.

Ma'lumotlarga qaraganda, “1883 yili “Turkiston viloyati gazetiga” muharrir bo'lib kelgan N. Ostroumov sobiq xonning o'sha vaqtda Toshkentda istiqomat qilib turgan o'g'illari bilan aloqa bog'lagan. Ulardan Sayyid Muhammad Aminbek va Ibn Yaminbeklarni o'z gazetasiga hamkorlik qilishga jalb qiladi...

Bu gazeta sahifalarida Sayyid Muhammad Aminbekning qiziqarli maqola va xabarlarini bosilib chiqqan boshlaydi”. U ushbu gazetada bosilgan “Farg'ona muzofotining xonlari xususida voqeotlar” tarixiy asari muallifidir. Sharif Yusupov ham jadidlardan bo'lgan “Muhammad Aminbekning “Turkiston viloyatining gazetiga”da 1894 yil 24 martda chop etilgan “Farg'ona muzofoti xonlari xususidagi voqeotlar” deb atalgan (mazkur asarini)

qimmatli manba”, deb atagan. “Farg‘ona muzofatining xonlari xususida voqeotlar”da “Oltin beshik” nomi bilan tanilgan afsona bayon etiladi. Bu afsona orqali Qo‘qon xonlari, xususan, Umarxon o‘z shajarasini bevosita temuriylarga, xususan boburiylarga bog‘lashga harakat qilgan. “Turkiston viloyatining gazetisi”dagi ushbu asarga qo‘shimcha sifatida Qo‘qon xonlari shajarasiga oid tarixiy ma‘lumotlar, xususan, Sayyid Muhammad Aminbekning Olimxondan to Sayyid Nasriddinxongacha bo‘lgan xonlarning hukmronlik yillari haqida ham ma‘lumotlar chop etilgan.

Muhammad Aminbekning o‘g‘li jadidlardan “Sayyid Muhammad Nuriddinbek ko‘magida 1907 yili Munavvar qori Ismoil Gasprinskiy Qrimda tashkil etgan “Usuli jadid” maktabiga o‘xshash shunday maktabni birinchi bo‘lib Toshkentda ochadi. Sayyid Muhammad Nuriddinbek yangi usuldagi Munavvar qori maktabida rus tili, harbiy va jismoniy tarbiya fanlaridan dars bera boshlaydi. Munavvar qori bilan birgalikda shaxmat haqida risola yozib, chop ettiradi. Bundan tashqari, Munavvar qori yozgan maktab darsliklarini nashr qildirishda ko‘mak berib, boshchilik qiladi. O‘qituvchilik faoliyatini jurnalistika bilan qo‘shib olib borgan Sayyid Muhammad Nuriddinbek jadidlarning “Taraqqiyot”, “Xurshid”, “Osiyo” va “Haqiqat” kabi ro‘znomalarida dolzarb maqolalari bilan ishtirok etadi”.

Xudoyorxonning ijodkor o‘g‘illaridan yana biri jadid Ibn Yaminbekdir. Ibn Yaminbek (Binyaminbek) “Turkiston viloyati gazetisi” (1893 yilning 22-28 sonlari)da ham o‘z esdaliklarini yozib nashr etganida, mahalliy ziyolilar orasida katta hurmatga sazovor bo‘lgan. Uning esdaliklari keyinchalik rus tilida ham chop etilgan. Uning tarixnavislik sohasidagi mahorati va tajribasi, tarixiy bilimlarga ega bo‘lgani, jiddiy tadqiqotchi ekani o‘sha esdaliklari mazmunidan ma‘lum bo‘ladi. Sharif Yusupov ham “Xufiya qatlamlar” kitobida Ibn Yaminbekning ijodkor ekaniga, uning “Tarjimai hol” asarining ma‘lum qismi “Turkiston viloyatining gazetisi”da 1893 yil 4 iyunda e‘lon qilinganiga to‘xtalgan.

“Xudoyorxon avlodlari tarixi” kitobida yozilishicha, “yosh bo‘lishiga qaramay, o‘sha davrning siyosiy doiralari va ma‘rifatparvar shaxslari orasida ko‘plab tanishlar orttirgan Ibn Yaminbek o‘z zamoni uchun yetarli darajada bilim olgan. Ibn Yaminbekda bilim va publitsistik iste‘dodni payqagan N. Ostroumov “Turkiston viloyati gazetisi” bilan hamkorlik qilishga chaqiradi. Bundan tashqari “Sadoi Turkiston” va “Sadoi Farg‘ona” gazetalarida ham faol qatnashadi.

Ibn Yaminbek o‘zining publitsistik maqolalarida dunyoviy fanlarni, Yevropa madaniyatini targ‘ib etadi. Uning 1893 - 1894 yillardayoq “Turkiston viloyati gazetisi” sahifalarida chop etilgan, o‘lka madaniy hayotida katta voqea bo‘lgan Ibn Yaminbekning Furqat “Sarguzashtnoma”si taxlitida yozilgan yirik publitsistik nasriy asari Turkiston ziyolilari tomonidan e‘tiborga sazovor bo‘ldi. Keyinchalik Ibn Yaminbek ancha muddat “Turkiston viloyati gazetisi”ning muharriri vazifasini ado etadi”.

Xudoyorxonning jadid farzandlari ichida esa faqat she‘r yozish bilan shug‘ullanib, shoir bo‘lib yetishib chiqqan shahzoda haqida Po‘latjon Qayyumiy o‘zining “Tazkirai Qayyumiy” nomli tazkirasida yozishicha, she‘rlar bitgan “Xusrav II ning nomi Fansurullobekdir.

Fargʻonaning sobiq xoni boʻlmish Xudoyorxon Sherali oʻgʻlining 16 oʻgʻlidan uchinchisidir...

U boʻgʻdoy rangli, sogʻlom vujudli kishi boʻlib, ilmi adabiyot, shahmat va cholgʻuda shashmaqom mashhur cholgʻuchisi va kuychisi, bazmi havas, nafis sanʼatga ega bir kishi boʻlib, ul bir sheʼrida bunday deydi:

Xusravo koʻnglingni xush tut aysha mashgʻul oʻl mudom,

Chunki bu dunyo uyining oxiri vayronadur.

Uning Navoiyga ergashuvchi nuktaomez ashʼorlari mavjuddir”.

Bahrom Irzaevga koʻra, Fansurullobek Turkiston jadidlaridan koʻzga koʻringan vakillaridan biri boʻlgan. “Xudoyorxon avlodlari tarixi” kitobida yozilishicha, “sheʼriyatga, shoirlarga ixlosi baland Fansurullobek shoir Furqat Toshkentda yashagan yillarda zabardast yigit boʻlgan. Shoirning Toshkentda ekanini bilgan Fansurullobekning u bilan tanishish, doʻstlashish, ayniqsa, sheʼriyat haqida suhbatlashish, oʻz sheʼriy mashqlarini koʻrsatib, undan maslahatlar olish istagi uni ulkan shoir Furqat bilan yaqinlashtiradi. Furqat Fansurullobekning “Zanjirli” mahallasidagi hovlisida bir necha marta mehmon boʻladi, undan koʻp iltifotlar koʻrgan.

Furqat Toshkentdan joʻnab ketgach, ruscha yaxshi xat – savodga ham ega boʻlgan Fansurullobek Turkistonning ijtimoiy – madaniy hayotida faol qatnasha boshlaydi. Turkistonning vaqtli matbuot organlari bilan hamkorlik qiladi. Oʻlkada jadidchilik harakati avj ola boshlagach, Fansurullobek ilk jadid matbuotini vujudga kelishida Shayx Xovand Tohur dahasining Darxon mahallasida istiqomat qiluvchi Munavvar qori Abdurashidxonov bilan fidoyilik koʻrsatadilar. Jadidlarning oʻlkadagi dastlabki gazetasi boʻlmish “Xurshid” gazetasi 1907 yil oʻzbek tilida chiqadi. “Xurshid”ning 2-soni Fansurullobekning “Sababi tuluʼi Xurshid” sarlavhali dasturiy maqolasi bilan ochiladi. Gazetaning undan keyingi sonlarida ham Fansurullobekning faol ishtiroki yaqqol koʻrinib turadi. Turkiston jadidlarining rahnamosi Munavvar qori Abdurashidxonovning oʻziga ustoz deb bilgan Fansurullobek hukumatga muxolif ruhdagi davriy nashrlarga, jumladan “Osiyo”, “Surʼat”, “Haqiqat” roʻznomalari sahifalarida ham bot - bot koʻrinib turadi”.

Darhaqiqat, “xonning farzandlari orasida Fansurullobek alohida oʻrin tutgan. U avvaliga jadidlar harakatiga qoʻshiladi. Munavvarqori bilan birga gazetalar chop etishda qatnashadi. Davriy matbuotda oʻz maqolalarini, sheʼrlarini eʼlon qiladi. Akademik Sharif Yusupovning yozishicha, Fansurullobek madrasada aruz vaznini oʻrganadi va sobiq xon (Xudoyorxon)ning farzandlari orasida yagona shoir boʻlib yetishib chiqadi.

Fansurullobekning gʻazal va muxammaslari XIX asr oxiri XX asr boshlarida tartib berilgan qoʻlyozma va toshbosma bayozlarda tez – tez uchrab turadi. Fansurullobek Xusrav taxallusi bilan ijod qilgan. Fansurullobekning nega Xusrav taxallusini olgani haqida uning nevara kuyovi, taniqli olim Fuzail Islomov shunday yozgan: “Fansurullobekning Xusravbek ismli yolgʻiz oʻgʻli boʻlgan va Toshkentda vafot etgan. Shundan soʻng Fansurullobek oʻgʻlining nomini oʻziga taxallus qilib olgan ekan. Xusravning gʻazal va muxammaslarini Sharqshunoslik instituti bosma manbalarda koʻrdim”. Fuzail Islomovning shaxsiy

kutubxonasida saqlangan Fuzuliy devonining so‘nggida Fansurullobekning Navoiy g‘azaliga yozgan muxammasi ham bo‘lgan”.

Fansurullobek Xusrav ustoz Muhyiga bag‘ishlab shunday misralar yozgan:

Batarzi masnaviy monandii Firdavsiyi Tusi,

G‘azal bobida go‘yo sa‘diy ushbu zamon Muhyi.

Muhyi ham Fansurullobekdek Xudoyorxon avlodlariga bag‘ishlab, qasidalar, she‘rlar va ta‘rixlar yozgan va o‘zining “Tarixi Muhyi Ho‘qandiy” asarida Qo‘qon xonligi tarixiga alohida to‘xtalgan.

Xullas, tadqiqotchi Bahrom Irzaevga ko‘ra, Xudoyorxonning jadid farzandlari Muhammad Aminbek, Ibn Yaminbek, Fansurullobeklar 1929 yilgacha davrda qatag‘onga uchrab, turli holatda sirli tarzda mahv etilganlar.

Muxtasar aytganda, Qo‘qon xonligida shahzodalarga berilgan ta‘lim – tarbiya samarasi o‘laroq, ko‘plab xon va xonzodalar shoir va adiblar, ya‘ni o‘z davrining ilg‘or vakillari - jadidlar bo‘lib ulg‘ayishgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Umarov Sh. Xudoyorxon avlodlari tarixi. T.: Turon zamin ziyo, 2014.-B.625.
- 2.Yusupov Sh. Xufiya qatlamlar. T.: Ma‘naviyat, 1999.-B.51.
- 3.Mirzaolim Mushrif. Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin. T.: G‘.G‘ulom nomidagi ASN, 1995.-B.79.
- 4.Avaz Muhammad Attor Ho‘qandiy. Tarixi jahonnamoyi. Fors – tojik tilidan tarjimon, kirish, izoh va ko‘rsatkichlar muallifi Shodmon Vohidov. T.: Fan, 2012.420.
- 5.Muhammadhakimxon To‘ra. Muntaxab at-tavorix.T.: Yangi asr avlodi, 2010.-B.390-391..
- 6.Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U., Rizaev Sh., Ahmedov S. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. T.: Ma‘naviyat, 2004.-B.145.
- 7.<https://ziyouz.uz/ozbek-ziyolilari/muhyi-1835-1911/>
- 8.<https://www.uzerk.org/8-2.html>
- 9.Xudoyorxonzoda. Anjum al-tavorix. O‘z FA ShI. Qo‘lyozma raqami: №11366
- 10.O‘zbekiston tarixiga oid manba va tadqiqotlar. (XIX-XX asr boshlari). Mas‘ul muharrir: D.Ziyaeva.T.: “Nurafshon business”, 2022.-B.76.
- 11.Xudoyorxonzoda. Anjum at-tavorix. T.: Fan va texnologiyalar, 2004.-B.119-120.
- 12.<https://kun.uz/news/2020/11/20/xudoyorxonning-chigal-taqdiri-qoqonning-sobiq-xoni-nega-orenburgga-surgun-qilingan-edi>
- 13.Niyoz Muhammad Ho‘qandiy. Ibratul xavoqin. (“Tarixi Shohruxiy”). T.: Turon zamin ziyo, 2014.-B.20-23.
- 14.Qayyumov P. Tazkirai Qayyumiy. T.: Qo‘lyozmalar instituti, 1999.-B.170-174.
- 15.Turdialiev A. “Tarixi Muhyi Xo‘qandiy” asari haqida.// “Sharqshunoslik”, - Toshkent. 2015.-№2-3.-B.143-144.

16. Muhyi. Tarixi Muhyi Ho‘qandiy. Qo‘lyozma. O‘z.FA Sharqshunoslik instituti, Sharq qo‘lyozmalari fondi. Inv. № 604. 13 – B.
17. Qorayev Sh. O‘zbek sultonlari tazkirasi. Monografiya. Qarshi, Intellekt.2024.-B.278.
18. Qorayev Sh. Temuriy sultonlar tazkirasi. Qarshi, Intellekt. 2024.-B.248.
19. Qorayev Sh. Qo‘qon xoni Xudoyorxon va uning ijodkor farzandlari tarixi/Scientific approach to the modern education syatem, Conference of Germany (<https://zenodo.org/records/10658802>) - Berlin, Vol. 2. Issue 2 (2024). –P.9 – 22.
20. Qorayev Sh. Qo‘qon xoni Xudoyorxon va uning ijodkor farzandlari.//-Qarshi, Sanduvoch, 2024 yil 29 fevral.-№04(505).-B.3-5.